

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOV NODIR ESONALIYEVICH**

**XUSUSIYATLARI BOSHQARILADIGAN CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al VA CdTe-ZnSe  
KENG ZONALI YARIMO‘TKAZGICHLAR ASOSIDAGI  
GETEROSTRUKTURALARDAGI FOTOELEKTRIK XODISALAR**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Alimov Nodir Esonaliyevich**

Xususiyatlari boshqariladigan CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe keng zonali yarimo'tkazgichlar asosidagi geterostrukturalardagi fotoelektrik xodisalar..... 3

**Алимов Нодир Эсоналиевич**

Фотоэлектрические явления в гетероструктурах широкозонных полупроводников на основе CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al и CdTe-ZnSe с управляемыми свойствами..... 21

**Alimov Nodir Esonaliyevich**

Photoelectric phenomena in heterostructures of wide – gap semiconductors based on CdTe-ZnSe and CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al with controlled properties..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOV NODIR ESONALIYEVICH**

**XUSUSIYATLARI BOSHQARILADIGAN CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al VA CdTe-ZnSe KENG  
ZONALI YARIMO‘TKAZGICHLAR ASOSIDAGI GETEROSTRUKTURALARDAGI  
FOTOELEKTRIK XODISALAR**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM29 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy raxbar:**

**Otajonov Salim Madraximovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Dadamirzayev Muxammadjon Gulomkodirovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Ayupov Kutup Sautovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nukus davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «05» 07 soat 12-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Tashkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz)

Dissertatsiya bilan Axborot texnologiyalarini joriy etish bo'limida tanishish mumkin. (50 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871)248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «21» 06 kuni tarqatildi.  
(2023 yil «21» 06 dagi 50 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.B. Utamuradova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**O.X. Qo'ldashov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

**N.A. Turgunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f. d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahon amaliyotida yarimoʻtkazgichlar materialshunosligi bilan optoelektron priborsozlik sohasida elementar yarimoʻtkazgichlar bilan bir qatorda turli  $A^{II}B^{VI}$  birikmalar va ular asosidagi geterostrukturalardan keng foydalanish oʻsib bormoqda. Kadmiy tellurid (CdTe) radiofaol nurlanishga turgʻunligi tufayli, zarrachalarni qayd etuvchi detektorlar uchun istiqbolli material boʻlib, boshqa GaAs va GaN materiallarga nisbatan, ionlashtiruvchi nurlanishni sezilarli darajada yuqori qayd etuvchanligi bilan samaralidir va 250 keV gacha boʻlgan nurlanishlarni qayd etishda zarur material hisoblanadi. Shuningdek, geterooʻtishlarga ega boʻlgan yupqa polikristalli CdTe qatlamlari quyosh batareyalari, optik xotira yacheykalarini ishlab chiqish uchun ham istiqbolli element hisoblanadi. Shu munosabat bilan CdTe yupqa qatlamini sirtiy va hajmiy chuqur tutqichlarning spektrlarini oʻrganish va uni boshqarish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda chuqur energiya sathlarga ega geterostrukturalarni legirlash orqali yangi materiallar sinfini olish boʻyicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, Si, CdTe va ZnSe ishtirokidagi geterostrukturani yaratishga yetarlicha eʼtibor qaratilmagan. Shu munosabat bilan CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si va CdTe-ZnSe asosida fotosezgir, elektromagnit nurlanishning keng diapazonida selektivlikni saqlay oladigan yuqori tezlikda ishlovchi qurilmalarni yaratish, ulardagi chuqur energetik sathlar spektrining paydo boʻlish qonuniyatlarini oʻrganish, yangi funksional imkoniyatlarni shakllantirish, materiallarning elektrofizik parametrlarini tashqi taʼsirlar bilan nazorat qilish, geterostrukturalarning hajmida yoki yuzasida joylashgan kirishmaviy sathlarning tabiatini oʻrganish ushbu dissertatsiyaning dolzarbligini koʻrsatadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Taʼlim sifatini oshirish va fizika sohasida ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika va elektronika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlari, hamda boshqa meʼyoriy – huquqiy hujjatlarda koʻrsatilgan vazifalarni maʼlum darajada bajarishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Hozirgi kunga qadar  $A^{II}B^{VI}$  asosidagi yupqa qatlamlarini oʻstirish va ularning strukturaviy, fotoelektrik xususiyatlarini

tadqiq qilish muammolari dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi ko'plab universitet va ilmiy markazlarda olib boriladi. Xususan, Ukraina Fanlar akademiyasi akademigi M.K. Sheynkman, V.P. Simashkevich (Ukraina) II-VI guruh elementlaridan tashkil topgan yarimo'tkazgichli birikmalaridan iborat geterostrukturalarning elektr xossalarini har tomonlama o'rganishgan. Professor V.S. Bagaev (Moskva, Rossiya) boshchiligida yuqori tozalikdagi CdTe nuqsonlarini optik va elektrofizik xususiyatlari o'rganilgan. Litvalik olimlar Y.Y. Vishakas, Y.K. Pojela, Y.Y. Vaytkus yuqori tezlikka ega fotodetektorlarni yaratishni eksperimental ravishda tadqiq etishgan.

Akademik R.A. Muminov, professorlar B.E. Umirzoqov, Sh.A. Mirsagatov boshchiligidagi bir guruh o'zbek olimlari CdTe yupqa qatlamidagi tok oqimining mexanizmlarini eksperimental tarzda tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, polikristalli CdTe yupqa qatlamlardagi fotoo'tkazuvchanlikning nostatsionar jarayonlariga kirishmalarning ta'siri to'liq o'rganilmagan. Sirt rekombinatsiyasiga ta'sir qiluvchi asosiy, chuqur tutqichlar aniqlanmagan. Polikristall CdTe namunalarining hajmiy va yuzaviy fototashuvchilarining yashash vaqtini o'zgarishi baholanmagan, shuningdek CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al asosidagi geterostrukturalarda zaryad tashuvchilarning yashash vaqti aniqlanmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti va Vilnyus universitetidagi Evropa mintaqaviy taraqqiyot jamg'armasining № 01.2.2-LMT-K-718-1-0013-sonli "Jahon miqyosidagi tadqiqotchilar guruhlaridan tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot loyihalari" (2015-2020 yy.) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe geterostrukturalarda chuqur sathlarga bog'liq yangi fotoelektrik hodisalarni aniqlash, ular asosida ko'rinma va infraqizil nurlanishga yaqin sohalarda samarali bo'lgan fotoo'zgartirgichlarni yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ZnSe yuzasiga va SiO<sub>2</sub> bilan qoplangan Si-tagliklarga polikristall CdTe qatlamlarini o'stirish;

CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al, CdTe-ZnSe geterostrukturalarda chuqur sathlarni aniqlash; polikristal p-CdTe qatlamlarda chuqur tutqichlarning spektroskopiyasini o'rganish va sirt rekombinatsiyasi tezligini aniqlash;

polikristall CdTe namunalarining hajmi va yuzasi yaqinida, shuningdek polikristalli CdTe qatlamlarda esa sirt mikroelefini hisobga olgan holda fototashuvchilarning yashash vaqtlarini o'zgarishini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida A<sup>II</sup>B<sup>VI</sup> guruh elementlarining birikmalari va CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al, CdTe-ZnSe geterostrukturalar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al, CdTe-ZnSe yupqa qatlamli geterostrukturalardagi mikropotensial to'siqlarni tashqi omillar ta'sirida boshqarish, shuningdek kirishmaviy fotoo'tkazuvchanlik sohasidagi chuqur kirishma markazlarining tabiatini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qo'yilgan vazifalarni hal qilishda impulsli fotoionlash spektroskopiyasi (PPIS), chuqur sathlarni aniqlash uchun Lukovskiy modeli, (BELIV) usuli, mikroto'liqlik zond fotoo'tkazuvchanligi (MW-PC) usullari qo'llanildi. (Yuqorida keltirib o'tilgan ikkita usul Vilnyus universitetining (Litva) ilmiy laboratoriyasida ishlab chiqilgan bo'lib, muallifning o'zi 2017 yil dekabr oyida geterostruktura namunalarini o'lchashda foydalangan).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor 300÷2300 nm diapazonda lazer nuri bilan qo'zg'atishdan foydalangan holda mikroto'liqlik zond va kontaktli fotoo'tkazuvchanlik usullari bilan CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturasida o'tish jarayonlarni kompleks o'lchashdan foydalanib sirt rekombinatsiyasining xarakterli vaqti  $\tau_R=19$  ns ekanligi aniqlangan;

CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe yupqa pardali geterostrukturalar asosida 0,4÷3,0  $\mu\text{m}$  to'liqlik uzunligida ishlaydigan fotoqabulqilgichlarni olishning optimal texnologiyalari ishlab chiqilgan;

ilk bor CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe geterostrukturalarida yupqa  $d \sim (0,5 \div 0,8)$   $\mu\text{m}$  polikristalli CdTe plyonkalari fotoo'tkazuvchanligining statsionar bo'lmagan o'tkinchi jarayonlari faollashtirish energiyasi  $\sim 1,23$  eV bo'lgan chuqur tutqichlar orqali fototashuvchilarning sirt rekombinatsiyalari bilan bog'liqligi aniqlangan;

ilk bor mikroto'liqlik zond fotoo'tkazuvchanligi (MW-PC) usuli bilan CdTe qatlami sezilarli xususiy fotoo'tkazuvchanligiga ega ekanligi aniqlangan va fotoionlanish energiyalari  $E_{b1} = 0,57$  eV (tugunlararo Te),  $E_{b2} = 0,94$  eV va  $E_{b5} = 1,42$  eV (Cd vakansiyasi),  $E_{b4} = 1,13$  eV (Te vakansiyasi) va  $E_{b3} = 1,05$  eV (Cd va Te nuqtaviy nuqsonlarining kompleksi) bo'lgan ichki nuqsonlarning hajmiy tutqichlari mavjudligi topilgan;

ilk bor CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe yupqa pardali geterostrukturalarning fotosezgirlik spektri tashqi elektr maydoniga bog'liqligi o'rganilib, bunda kuchlanish 0 dan 100 V gacha oralig'ida qisqa tutashuv tokining maksimumi ( $I_{qt}$ ) spektrning 0,93÷1,5 eV sohalariga siljishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostruktura asosidagi fotopriyomnikning sezgirligini boshqarishda Ag va Cu kirishmalar rolining samaradorligini oshirish usullari ishlab chiqilgan;

CdTe-ZnSe geterostrukturasida optik spektral xotira elementi sifatida signallarni yozib olish usuli hamda rentgen, ultrabinafsha, infraqizil nurlanishlarni qayd etuvchi fotodetektor ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:**

zamonaviy o'lchash asboblari va tadqiqot usullarini qo'llanilganligi, eksperimental va hisoblangan ma'lumotlarni boshqa mualliflarning nazariy natijalari bilan muvofiqligi, shuningdek olingan natijalarni zamonaviy fizik modellar asosida tavsiflanganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kremniy (SiO<sub>2</sub>-Si) tagliklarga olingan CdTe yupqa qatlamlaridagi sirt rekombinatsiya tezligi bilan chuqur tutqichlar spektroskopiyasi haqidagi tasavvurlarni aniqlashtirish va takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ZnSe tagliklariga o‘stirilgan ZnSe-CdTe geterostrukturalar samarador yorug‘lik va elektr datchiklarni, SiO<sub>2</sub>-Si taglikka o‘stirilgan CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturalar esa spektral fotosezgirlikka ega xotira elementlarini ishlab chiqarishda qo‘llanilishidan iborat.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al asosidagi yupqa pardali geterostrukturalarni strukturaviy, elektrofizik, fotoelektrik xususiyatlari va tok o‘tish mexanizmlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturani, rentgen nurlarini qayd etish uchun fotodetektor sifatida foydalanish usuli yaratilganligi Namangan muhandislik-qurilish instituti Fizika kafedrasida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2017-2020 yillarda bajarilgan OT-F2-71. “O‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi deformatsiyalangan p-n o‘tish volt-ampere xarakteristikasiga yorug‘likning ta’sirini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada qo‘llanilgan (Namangan muhandislik-qurilish institutining 2021 yil 14 dekabr № 06/10 son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish, infraqizil fotoqabulqilgichlarni elektrofizik parametrlarini uning analoglari darajasidagi ko‘rsatkichlariga mos keladigan, namunalarini tayyorlash imkonini bergan;

Yuqori vakuumda ( $10^{-6}$  mm simob ustuni) ZnSe yuzasiga kondensatsiya tezligi 0,45 nm/s bilan 1  $\mu$ m qalinlikda CdTe yupqa qatlamlarini o‘stirish natijasida olingan ZnSe-CdTe geterostrukturalar “OLTARIK-INNOVATSIYA” MChJ tashkilotining payvandlash apparatlari va aqlli svetoforlarni ishlab chiqishda yorug‘lik va elektr datchiklar sifatida qo‘llanilgan. CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al, CdTe-ZnSe geterostrukturalar asosida 0,4 - 3,0  $\mu$ m elektromagnit nurlanish diapazonida ishlay oladigan fotodetektorlar va fotodatchiklar yaratish mumkin, ular bilan ultrabinafsha va rentgen nurlarini qayd etishda “OLTARIK-INNOVATSIYA” mas’uliyati cheklangan jamiyatining turli xil texnik ishlanmalarida qo‘llanilishi mumkin (“OLTARIK-INNOVATSIYA” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2021 yil 29 oktyabridagi №25/01-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish amalda yorug‘lik va elektr datchiklarning ishchi parametrlarini yaxshilash imkonini bergan.

FOTON OAJda mikroto‘lqinli zond usullaridan foydalangan holda CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturasi vaqtinchalik jarayonlarni kompleks o‘lchash imkoniyati va 300 - 2300 nm oralig‘ida lazer qo‘zg‘alishidan foydalangan holda kontaktli fotoo‘tkazuvchanlik o‘z qo‘llanilishini topdi, bu esa sirt rekombinatsiyasining xarakterli vaqti  $\tau_R = 19$  ns tenglini aniqlashga imkon berdi. 0,4 - 3,0  $\mu$ m spektral diapazonda elektromagnit nurlanishning fotodetektorlarini va CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va Cd-da yupqa  $d \sim (0,5 - 0,8)$   $\mu$ m polikristalli CdTe plyonkalarining fotoo‘tkazuvchanligi statsionar bo‘lmagan vaqtinchalik jarayonlarini yaratish imkoniyati, geterostrukturalar faollashtirish energiyasi  $\sim 1,23$  eV bo‘lgan chuqur tutqichlar orqali fototashuvchilarning sirt rekombinatsiyasi orqali hosil bo‘lishiga olib keladi. Ular FOTON OAJ tomonidan ishlab chiqarilgan yarimo‘tkazgichli elektron qurilmalarni ishlab chiqarishda qo‘llanilgan (“O‘zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasining 2022 yil 21 noyabrdagi 04-3/2405-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish eksperimental namunalarda

elektron texnik qurilmalarni ishlab chiqarish va ularning elektrofizik parametrlarini yaxshilash imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar esa 29 ta ilmiy ishda, ulardan 2 tasi patent va 7 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 5 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 26 ta rasm, 1 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishlar tahlili, muammoni o'rganilganlik darajasi va tekshirish metodlari keltirilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, dissertatsiya tuzilishi va hajmi tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**“p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al asosidagi geterostrukturalar va yupqa pardalardagi fotoo'tkazuvchanlik” deb nomlangan birinchi bobida** muammoning holati bo'yicha adabiyotlar sharhi berilgan; A<sup>II</sup>B<sup>VI</sup> guruhlariga mansub yarimo'tkazgichlarning spektral xususiyatlarini o'rganish natijalari tahlil qilingan.

Yupqa parda ko'rinishidagi CdS, CdTe va p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe geterostrukturalarida fotoo'tkazuvchanlikning hosil bo'lishing mexanizmlari tahlil etilgan. Shu bilan birga, geterostrukturalarda chuqur sathlar to'g'risidagi ma'lumotlar juda kamligi va ularning geterostrukturalarda parametrlari yo'qligi aniqlandi. Shu sababli, CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si va CdTe-ZnSe geterostrukturalarida chuqur markazlarni batafsil o'rganish, barerlarda fotoo'tkazuvchanlik va foto EYuK hosil bo'lishida rol o'ynaydigan sathlarni aniqlashtirish, shuningdek spektral fotosezgirlikni tadqiq etish aktual masala qilib olindi.

Yakuniy qismda umumiy tahlil natijasida dissertatsiyada belgilab olingan tadqiqotlar vazifalari belgilab olish bo'yicha asosnoma keltirilgan.

**“p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe asosidagi geterostrukturalarni tayyorlashdagi texnologik jarayonlar”** deb nomlangan ikkinchi bobda, p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al asosidagi geterostrukturani tayyorlash texnologiyasi bilan p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturada Lukovskiy modeli asosida fotoo'tkazuvchanlik spektrlaridan (MW-PC metodi) foydalangan holda chuqur energetik sathlarni aniqlash va teskari yo'nalishdagi vaqtinchalik tok oqimlarining jarayonlariga asoslangan, kuchlanishni chiziqli kuchaytirish yordamida barerni baholash (BELIV metodi) deb yuritiladigan ikki usul keltirilgan.

Rekombinatsiya xususiyatlarini baholash uchun fotoo'tkazuvchanlikning kontaktsiz mikroto'lqinli o'lchashlardan foydalanilgan. Bu erda namunadagi ortiqcha tashuvchilarni qo'zg'atish uchun 1062 nm to'lqin uzunligi bilan qayd etilgan qisqa 400 ps lazer impulsidan foydalanilgan. Ortiqcha tashuvchilarning konsentratsiyasi, namunaning mikroto'lqinlarining uzatish va aks ettirish koeffitsientlarini belgilaydi. Ortiqcha tashuvchilarning yashash vaqti tashuvchining sochilishi bilan bog'liq mikroto'lqinli javob bilan o'tish jarayonlarini qayd etish orqali baholash mumkin. Bu usulda impulsli fotoionizatsiya spektroskopiyasi qo'llaniladi, uning doimiy fotooqim usulidan afzalligi shundaki, qorong'u tok oqimining sirqishi PPISda sig'imli filtr tomonidan oddiygina bartaraf etiladi. Unda fotoqo'zg'atilgan tashuvchilarning rekombinatsiyasi va tutilishi vaqtlarining o'zgarishi fotoionlanishning ma'lum spektral bosqichlari bilan bog'liq korrelyatsiyalanadi va bir vaqtning o'zida boshqariladi. Bundan tashqari, PPIS xona haroratida kontaktsiz rejimda qayd etiladi, shu bois kontakt bilan bog'liq ta'sirlar hisobga olinmaydi. Amalga oshirilgan o'lchovlarda PPI spektroskopiyasi parametrik optik generatorlar (optical parametric oscillator -OPO) bilan jihozlangan femtosekundli (fs) va nanosekundli (ns) lazerlar yordamida qo'zg'atilib amalga oshirilgan. Bunda, nanosekundli Ekspla NT342B qurilmasi, impuls davomiyligi 4 ns va to'lqin uzunligini sozlash diapazoni 210 dan 2300 nm gacha bo'lgan tizim bilan impuls davomiyligi ~ 40 fs va to'lqin uzunligi 350-2500 nm bo'lgan diapazonli sapfir lazeridan iborat Ti asosidagi OPO tizimdan tashkil topgan.

Geterostruktura kontaktlarining sifati va chiziqlilik diapazoni impuls usuli (BELIV) yordamida tokning o'tish jarayonlarini o'lchash orqali tekshirildi. Tokning o'tish jarayonlari Agilent DSO6102A ostsilografning chiqish qismiga 50 Om yuklanishni kiritishi yordamida qayd etiladi. Bundan tashqari, o'lchov sxemasi ketma-ket ulangan, chizikli ortib borayotgan kuchlanish generatori (GLIV) va sinov ostidagi diodning tartibga solinadigan chiqish quvvatidan iborat. Vaqtinchalik tok oqimlari o'nlab pA dan o'nlab mA gacha bo'lgan vaqtlari 100 ns dan 10 ms gacha bo'lgan GLIV impulslari yordamida o'lchanadi, o'lchovlar esa qo'shimcha oqim kuchaytirgichsiz amalga oshiriladi. Har xil materiallarning birikmalari, sohalari va ayniganlik zonalari tekshirilishi mumkin. To'siqning sig'im oqimini o'lchashning sezgirliги LIV impulslarining tezligini o'zgartirish orqali o'zgarishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, agar kerak bo'lsa, uni kuchaytirgich yordamida kuchaytirish mumkin. Statistik shovqinni kamaytirish uchun odatda o'rtacha 10-100 o'tish jarayoni amalga oshiriladi. BELIV usulini amalga oshirish uchun GLIV signalining chiziqlilik muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, ostsilografning ikkinchi kanali yordamida bir vaqtning o'zida o'lchangan LIV signali va uning hosilasi doimo qayd etiladi. O'lchov tizimi kompyuter tomonidan boshqariladi.

Dissertatsiyaning "**Chuqur aralashma sathli p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al va CdTe-ZnSe asosidagi geterotuzilmalarning fotoelektrik xususiyatlari**" nomli uchinchi bobida turli yarimo'tkazgich strukturalar yuzasiga olingan CdTe qatlamlarni elektrofizik xususiyatlari hamda qisqa tutashuv toki va fotoo'tkazuvchanlik spektrlarini tahlilini soddalashtirish uchun yupqa qatlamlarni yutilish chegaralari ko'rib chiqilgan. Ushbu qatlamlarni bir necha soddada fenomenologik modellari ko'rilgan. Bobning oxirida polikristall yupqa qatlamlarning yorug'likni xususiy va


aralashma yutilish sohalaridagi fotosezgirlikni hosil bo'lish nazariyasi va real modelini yaratishga harakat qilingan.

CdTe-ZnSe tuzilmalaridagi fotosergirlikni aniqlash uchun <Ag> bilan legirlangan CdTe qatlamni qisqa tutashuv tokini spektral xarakteristikasi o'lchanadi va chuqur sathlarni ionizatsion optik energiyasi xisoblanadi.


CdTe yupqa qatlamni fotosezgirliги yorug'lik kvant energiyasining  $h\nu = 0.45 \div 2.7$  eV oralig'ida bo'ladi (1-rasm.)

CdTe qatlamidagi foto EYuK zonalararo va ionizatsion optik energiyasi 1.04; 1,15; 1,32 eV bo'lgan chuqur sathlardan uyg'otilgan tok tashuvchilar hisobiga hosil bo'ladi va butun tsink selen lyuminesentsiya chiziqlarini o'z ichiga qamrab oladi (1-rasm, 2-egri chiziq).

<Ag> bilan legirlangan CdTe yupqa qatlamlarini fotosezgirliги frontal yoritish orqali doimiy fotoo'tkazuvchanlik rejimida spektrlarni o'lchash orqali aniqlanadi. 2-rasmda 1-egri chizig'i kadmiy tellur yupqa qatlamni fotosezgirliğini qutbi, qo'yilgan maydon qutbi bilan mos kelishini xarakterlaydi; 2-egri chizig'i esa qutblar qo'yilgan maydonga qarama-qarshi bo'lgan holatini xarakterlaydi. CdTe yupqa qatlamlaridagi fotokuchlanish tashqaridan qo'yilgan elektr maydon yo'nalishiga bog'liq holda fotoo'tkazuvchanlikni o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.



1-rasm. CdTe-ZnSe geterostruktura ustidagi CdTe <Ag> yupqa qatlamlarni frontal yoritishdagi  $I_{f.o'}$ ,  $I_{q.t}$  spektrlari.




2-rasm. ZnSe ustiga olingan CdTe <Ag> yupqa qatlamlarni frontal yoritilganidagi fotokuchlanish spektrlari: 1- $\times$  fotokuchlanish kutblanganligi maydon kutblanganligi bilan ustma ust va 2- $\bullet$  qarama qarshi bo'lganida.  $U = 18$  V.

Qo'yilgan elektr maydon yuqori fotokuchlanish hosil bo'lishiga olib keladi. Bu esa kadmiy tellurning yutilish chegara sohasida yuqori fotosezgirlikni hosil bo'lishiga va bu o'tkazuvchanlik belgisini o'zgarishiga olib keladi. Yupqa qatlamda hosil bo'lgan fotosignal yo'nalishi foto EYuK yupqa qatlam belgisi bilan mos tushadi (1-egri chiziq). Bu shu bilan izohlanadiki, qo'yilgan elektr maydon nosimmetrik to'siqlar sohasidan zaryad tashuvchilarni tortib oladi va natijada foto EYuK ortib ketadi.

CdTe va ZnSe sirtida to‘siqlarni boshqarish orqali yoruglik kvant energiyasini 1,4; 1,7 eV va 1,9; 2,3 eV ikkita sohasida foto EYuK ni bir xil va har xil belgili olish mumkinligini ko‘rish mumkin (2-rasm). CdTe asosidagi fotosezgir yupqa qatlamlarni muhim xususiyatlardan biri, uning avtonom xarakterga egaligidir, shuning uchun yupqa qatlamli optoelektronikada alohida qiziqish uyg‘otadi ayniqsa elektromagnit nurlanishning keng diapazonida ultrabinafsha va rengen nurlanishlari asosida ishlaydigan energiya uzgartirgichlar sifatida qo‘llash mumkin.

Yupqa qatlam ko‘rinishidagi p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si strukturasi spektral fotosezgirlikni tashqi elektr maydon ta‘siri ettirilgan va u o‘chirilgandan keyingi holatini ko‘rib chiqamiz (3-rasm.).

Bu spektral fotosezgirlikning qoldikli xarakterini ochib beradi. Statsionar  $I_{q.t.} = 300$  V bilan fotosezgirlik 100 V (egri chiziq 1) dan 1000 V gacha (2-egri chiziq) ortadi. Tashqi maydon ta‘sirini olib tashlagandan so‘ng, fotosezgirlik 25 kun ichida asl qiymatiga (3, 4-egri chiziqlar) qaytmaydi. Qoldiq o‘tkazuvchanlik holatida bo‘lgan geterostrukturaning fotosezgirlikni asl holatiga qaytarish, bir necha millisekund davomiyligidagi teskari kuchlanish impulsini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Xotiraning bunday “o‘chirilishi” qoldiq o‘tkazuvchanlikning maydonni o‘chirilishi bilan izohlanadi. Maksimal fotosezgirlik elektr maydonining kattaligi va intensivligiga bog‘liq bo‘ladi.




**3-rasm. CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si strukturasi 300 V kuchlanish bilan zaryadlangandan va qorong‘ida tutib turilgandan so‘ng vaqtiga nisbatan bog‘lanish spektrlari. 1 - zaryadlangandan so‘ng, 2 - 6 kundan keyin, 3 - 19 kundan keyin, 4 - zaryadlashdan oldingi bog‘lanishlarning egri chiziqlari.**

Kuzatilgan qoldiq fotosezgirlikning fizik tabiatini va qo‘llaniladigan tashqi doimiy elektr kuchlanish ta‘siri p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturada sodir bo‘ladigan elektron o‘tkazish hodisasining mexanizmini sifatli tavsiflash uchun quyidagi model ko‘rib chiqiladi. Bunda statsionar tok - bu CdTe yarimo‘tkazgichning o‘tkazuvchanlik zonasidan SiO<sub>2</sub> oksidi qatlami orqali Si yarimo‘tkazgichning o‘tkazuvchanlik zonasi bilan yarimo‘tkazgichning o‘tkazuvchanlik zonasidan dielektrikda joylashgan chuqur sath va ularning

chegasidagi tutqichlarga tunnel effekt orqali o'tayotgan elektronlar oqimidan iborat. Yorug'lik ta'sirida ushbu sathlardan ajralib chiqadigan tok tashuvchilari, uzoq vaqt saqlanib turadigan o'tkazuvchanlikka o'z hissasini qo'shadi. Bunga sabab, elektronlarning sirt holatlarida tutilib qolishi bilan ortib ketadigan assimetrik potentsial to'siqni, tashuvchilarning rekombinatsiyasiga to'sqinlik qilishidir. Bunda, potentsial to'siq faqat sirt holatlaridagi zaryad tufayli yuzaga keladigan bir hil yarimo'tkazgichdan farqli o'laroq, p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturasi kontakt materiallarni chiqish ishlarining farqi tufayli qo'shimcha ravishda ortadi. Shu sababli geterostrukturada optik spektral xotira hodisasi ko'proq namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, elektr kuchlanishining kattaligini o'zgartirib, namunani qorong'u tok va maksimal qoldiqli o'tkazuvchanlik oqimi o'rtasidagi har qanday holatga o'tkazish mumkin. p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturani nafaqat signallarni saqlashga qodir optoelektronik spektral xotira sifatida ishlatilishi mumkin, balki ularni yig'ib borish ham mumkin. Bundan tashqari, ushbu spektral xotiraning o'ziga xos xususiyati, signallarni tashqi kuchlanishni qo'llamasdan qayd eta olish olish qobiliyatidir, chunki p - CdTe yuqori fotosezgirlikka ega va uzun to'lqinli yorug'lik nurlanishining (0,5 - 2,7 μm) keng diapazonida joylashgan ma'lumotlarni qayd eta olishi mumkin.



4-rasm. Vaqt o'tishi bilan p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterostrukturaning fotosignalining so'nish egri chizig'i:  $\lambda = 0,85 \text{ mkm}$ ;  $h\nu = 1,5 \text{ eV}$ .

Dissertatsining **p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al asosida olingan geterotuzilmalarda fotoo'tkazuvchanlik kinetikasi** nomli to'rtinchi bobida bug' fazali epitaksiya metodi bilan Si taglikga o'stirilgan SiO<sub>2</sub> yuzasiga 1μm qalinlikdagi p-CdTe polikristall yupqa qatlamlardagi sirt rekombinatsiya tezligi va chuqur tutqichlar spektroskopiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ikkita nusxadagi qatlamlar tekshirilgan, ya'ni yorug'lik nurlanishi uchun shaffof, silliqlangan saphir tagliklarga o'rnatilgan alohida CdTe qatlamlari bilan CdTe da yon yo'nalishda omik kontaktli p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterotuzilmalar tanlab olingan. CdTe qatlamlarda sirt rekombinatsiya tezligini baholash va p-CdTe-SiO<sub>2</sub>-Si-Al geterotuzilma uchun chuqur sathlar spektrini qayd etib borishda to'lqin uzunligi bo'yicha impuls ko'zg'alishlarni muvofiqlashtiruvchi fotoo'tkazuvchanlikni o'tish jarayoni bilan mikroto'lqinli zond metodikasidan foydalanildi.

Ortiqcha zaryad tashuvchilar parchalanish o'tish jaraenini kontaktsiz qayd etish fotoo'tkazuvchanlikni mikroto'lqinli zond (MW-PC) metodi orqali o'tkazildi.

Ortiqcha zaryad tashuvchilarni qo'zg'atish to'lqin uzunligini davomiyligi 4ns bo'lgan lazer impulslari yordamida amalga oshirildi. Zaryad tashuvchilarni qo'zg'atuvchi to'lqin uzunligi, bir vaqtning o'zida chuqur tutqichlar to'lib qolmasligi uchun, fotonlarning kichik energiyasiga to'g'ri keladigan spektral diapazondan olib boriladi, bunda tutqichlarning har biri qayd etiladigan foto-javobga ega bo'ladi.

Mikroto'lqinli (MW) o'lchash sistemasini sezgirligini orttirish uchun to'lqin sistema MW - ko'prikkaga ega. Zaryad tashuvchilarni qo'zg'otish 210 dan 2300 nm gacha bo'lgan to'lqin uzunlikdagi optik parametrik generatorlar sistemasi Ekspla NT342dan foydalanilgan holda amalga oshirildi. O'lchanadigan namuna 20-22 GHz chastotali kuchaytirgich tirqishiga joylashtiriladi, lazer impulsi esa CdTe materialida  $\sigma(t) = \sigma_0 + \Delta\sigma(t)$  fotoo'tkazuvchanlikni hosil qiladi. Vaqtinchalik fotoo'tkazuvchanlik MW tsirkulyator bilan ajratilgan MW detektor signalini o'zgartiradi. MW-PC signalni  $U_{MW-PC}(t) \sim \Delta\sigma(t)/\sigma_0$  amplitudasi ortiqcha zaryad tashuvchilar  $\Delta n(t) \sim \Delta\sigma(t)$  kontsentratsiyasiga proporsionaldir. O'zgaruvchan MW-PC jarayoni, fotoionizatsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi turli chuqur sathlarga tegishli, elektron o'tishlar hisobiga erkin zaryad tashuvchilar zichligining o'zgarishini tasvirlaydi. Fotoionizatsion javob, tushayotgan lazer nurlarining to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lgan elektron-foton o'zaro ta'sir kesimga bog'liq bo'ladi.


Odatda fotoionizatsiya spektri MW-PC o'tkazuvchanlik javoblarning pog'anasimon tuzilishini o'z ichiga olib, kalibrlangan kvant miqdori va tushayotgan foton energiyasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu spektr, chuqur sathlardagi fotoionizatsiya energiyasini qizil chegarasini baholash uchun Lukovskiy modelidan foydalanib tahlil qilinadi. Lukovskiy modeli,  $E_d$  -ning bitta parametridan foydalanib elektron fotonning tutilish kesim yuzasini tushuntirish uchun eng sodda yaqinlashishdir.

Lazer impulslarini turli spektrlarida ushlangan zaryad tashuvchilar fotoionizatsiyasi chuqur tutqichlar parametrlarini va ularni to'ldirilish holatini aniqlashga yordam beradi. Lukovskiy modelida  $\sigma_{p-s}$  kesim quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_{p-s}(h\nu) = \frac{BE_d^{1/2}(h\nu - E_d)^{3/2}}{(h\nu)^3} \quad (1)$$

bu erda  $V$  multiplikativ koeffitsientdir.  $\alpha(h\nu) = \sigma_{p-s}(h\nu)n_d^0$  bo'lganida  $h\nu$  fotonlar energiyasi uchun  $\alpha(h\nu)$  yutilish koeffitsientini o'zgarishi, ushlangan zaryad tashuvchilar  $n_d^0$  zichligiga proporsional bo'ladi.  $n_d^* = \sigma_{p-s}(h\nu)n_d^0 F(h\nu)$  fotoionlashgan zaryad tashuvchilar zichligi tushayotgan fotonlar  $F(h\nu)$  sirt zichligi asosida MW - zond orqali nazorat qilinadi. Keyin  $N_d$  tutqichlar zichligi  $\alpha(h\nu)$  yutilish koeffitsienti spektri bo'yicha mustaqil holda baholanadi.  $n_d/N_d$  to'ldirish koeffitsienti,  $\alpha(h\nu)$  ni  $F|_{h\nu}$  nisbatan yoki MW-PC signalini yuqori qiymatini kombinatsiyalashgan o'lchashlari orqali nazorat qilinadi va ushbu xarakteristikalarini to'yinishi  $N_d$  tutqichlarni to'liq fotoionlanishini bildiradi.

Alohida CdTe namunalarida, belgilangan va nisbatan past ( $I_{exc}/I_{exc0} = 0,2$ ) qo'zg'alish zichligi uchun qayd etilgan MW-PC ning vaqtinchalik jarayonlari 5.a - rasmda ko'rsatilgan. 5.a-rasmdan shunday xulosaga kelish mumkinki, MW-PC vaqtinchalik shakli, qo'zg'alish to'liqin uzunligi ortishi bilan ikki komponentlidan deyarli bir eksponentialga o'zgaradi. Bu sirt rekombinatsiyasining namoyon bo'lishining aniq belgisidir. Bu ikki tomoni ochiq yuzalarga ega bo'lgan juda yupqa namuna uchun juda mos keladi.



**5-rasm. Qo'zg'alish to'liqin uzunligining o'zgarishi (qo'zg'alishning past qiymatlarida ( $I_{exc}/I_{exc0} = 0,2$ ) - (a) va qo'zg'alish zichligi yuqori ( $\lambda_{exc} = 700$  nm) - (b) salfirda o'rnatilgan CdTe yupqa pardasida  $T = 300$  K da qayd etilgan vaqtinchalik MW-PC jarayonlari (c) -  $t = 0$  da 1000 nm to'liqin uzunligidagi qo'zg'alish zichligiga bog'liq MW-PC signali (d) -  $t = 0$  dagi MW-PC signalining variatsiyalari va CdTe yupqa pardasida qo'zg'alish zichligini ( $I_{exc}/I_{exc0} = 0,2$ ) qiymatida qayd etilgan, sochilishni boshlangich bosqichidagi tashuvchilarning, samaraviy yashash vaqtining so'nishi.**

Kontakli fotoo'tkazuvchanlikni o'zgaruvchan jarayonlari qo'zg'atuvchi to'liqin uzunligiga bog'liq holda qo'shimcha ravishda o'lchangan. Bu o'lchashlar shuningdek, 50 Omli yuklanish rezistorida fototok va fotorezistorni elektrod oraliq'idagi qo'zg'atish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fototok va MWning javob signali Tektronix 1 GGts TDS -5104 ossillografi yordamida yozib boriladi.

Ushbu hodisa samarali qo'zg'alish chuqurligini asosiy modasi  $A_1$  amplitudasining pasayishi bilan izohlanib, yutilish koeffitsientiga nisbatan teskari bo'lgan  $\alpha$  kattalikdir. Taxminan 800-1000 nm to'liqin uzunligi diapazonida, CdTe materialining yutilish qiymatini chetida qo'zg'atuvchi foton energiyasi bilan yutilish

koefitsienti keskin ortadi. Bunda CdTe nanostrukturalariga xos bo'lgan yutilish koefitsientining qatlam qalinligiga bog'liqligiga e'tibor bermaslik mumkin, chunki 1 mikron qatlam qalinligi, hajmiy materialning xususiyatlariga ega bo'lish uchun yetarlidir.

Plastina  $x$  chuqurligining koordinatasi bo'ylab  $t$  vaqt bilan tashuvchilar zichligining o'zgarishi, quyidagi munosabat bilan tavsiflanadi:

$$n(x,t) = n_0 \sum_{m=1}^{\infty} A_m e^{-(D\eta_m^2 + 1/\tau_R)t} \sin\left(\eta_m x + \arctg \frac{D\eta_m}{s}\right) \quad (2)$$

bu erda  $n_0$  - yorug'lik tomonidan kiritilgan ortiqcha tashuvchi juftlarning konsentratsiyasi,  $A_m$  - sochilish rejimining fazoviy chastotasi  $m$  uchun tayinlangan so'nish amplitudasi,  $\tau_R$  - hajmiy rekombinatsiyaning yashash vaqti,  $D$  - tashuvchilarning ambipolyar tarqalishi koefitsienti,  $s$  - sirt rekombinatsiyasi tezligi.

Vaqtinchalik jarayonlarning eng yuqori amplitudalari qo'zg'alish intensivligi bilan chiziqli o'sishni ko'rsatadi (5.c-rasm), bu bir xil qo'zg'alish ostida chiziqli rekombinatsiya jarayonlarini nazarda tutadi, dastlabki bosqichda tashuvchilarning sochilishi (5.a-rasm) bir xil bo'lmagan qo'zg'alishda eksponentsial bo'lmagan sochilishi jarayonini ko'rsatadi. Qatlam  $d$  qalinligi bo'yicha va uning eng yuqori qiymatiga ( $t=0$  da) normallashtirilgan tashuvchi juftlarning o'rtacha konsentratsiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi

$$\frac{\langle n(t) \rangle_d}{\langle n(0) \rangle_d} = \sum_{m=1}^{\infty} \langle A_m \rangle_d e^{-(D\eta_m^2 + 1/\tau_R)t} \quad (3)$$

Qarama-qarshi sirtlarda rekombinatsiyaning teng tezliklari ( $s_1 = s_2 = s$ ) uchun fazoviy chastotalarni quyidagi transsendental tenglamani yechish orqali aniqlash mumkin.

$$ctg(\eta d) = \eta d \frac{D}{sd}. \quad (4)$$

